

SO'Z TURKUMLARI VA ULARNI MATN ASOSIDA TASNIFLASH MASALASI

Boboyeva Shaxlo

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 7 sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Sattarova Rayhon

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 7 sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so'z turkumlarini matn asosida tasniflash haqida so'z yuritilib, so'z turkumlarini tasniflashda 3 asosiy xususiyat (semantik, morfologik va sintaktik)ni nazarga tutgan holda, matn asosida ishlash va bu uslub ahamiyatini yoritishdir.

Kalit so'zlar. So'z turkumlari, matn, tasniflash, so'z turkumlar soni, taraqqiyot boshqichi.

KIRISH

So'z turkumlarining o'rganish tarixi antik davrlarga borib taqaladi. O'sha davr faylasuf, mantiqshunosh va tilshunoslari bu borada ilk marta juda qimmatli fikrlar bildirganlar. Masalan, Arastu so'z turkumlari sonini 3 ta deb ko'rsatgan va unga ot, fe'l, va bog'lovchi vositalarni kiritgan. Oradan qarib 12 – 13 asr o'tgandan keyin, ulug' bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariy ham so'z turkumlari sonini 3 ta deb ko'rsatgan. So'z turkumlari nazaryasining rivojlanishi, olimlarning bu masala bilan shug'illana boshlashishi barobarida so'z turkumlari soni ham ortib bordi. Bu holat asosan, 19 – 20asrlarda keng taraqqiy etdi. Turli davrlarda so'z turkumlari turli songa bo'lganligini e'tirof etish bilan, ushbu maqolada matn bilan ishlashning ahamiyati va yangi uslub bilan ish tutish haqida o'z fikrlarimizni bayon qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari haqidagi asosiy ilmiy bahslar, avvalo, so'z turkumlari tasnifi, o'zaro munosabati, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi



masalasi. Soʻz turkumlari soni va tarkibini aniqlashda soʻzlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini nazarda tutish keng tarqalgan. Ammo amaliyotda, asosan, soʻzlarni turkumlashda, ularning semantik xususiyatiga tayanish urfga aylangan.

Soʻz turkumlari soni bularning turkumlanish tamoyillari anchadan beri oʻrganilib kelindi va kelinmoqda. Lekin har qanday usul ham soʻz turkumlarining xolis tasnifini bera olmasligiga qattiq ishongan rus tilshunosi M.N. Peterson soʻz turkumlari sonini va ular bilan bogʻliq muammolarni matn asosida oʻrganishga qaror qiladi va shu maqsadda ulugʻ rus shoiri A. S. Pushkinning “Belkin hikoyalari” (“Повести белкина”) asarini tanlaydi. Chunki uning yozishicah, hozirgacha rus tilshunosligida ham jahon tilshunosligida soʻz turkumlari haqidagi masala oʻz yechimini topgan emas. Oʻz fikrini dalillash uchun M.N. Peterson mashhur fransuz tilshunosi J. Vandirisning quyidagi soʻzlarini keltiradi: “soʻzlarni turkumlash nihoyatda qiyin boʻlgani uchun hozirgacha hech kim soʻz turkumlarining manzur boʻlarli tasnifini yaratgan emas. Anʼanaga koʻra yunon mintiqshunoslari taʼlimotlariga borib taqaluvchi fransuz mumtoz (klassik) grammatikasi 10 ta soʻz turkumini farqlaydi. Ammo bu tasnif hech qanday tanqidga dosh bera olmaydi: “uni na faqat boshqa tillarga, balki uni yaratgan (yunon) tiliga nisbatan ham tatbiq etib boʻlmaydi” [qarang: J. Vandiri 1937, 139-bet, iqtibos M.N. Petersonniki].

M.N. Peterson 1885 yilning 22-sentyabr kuni Rossiyaning Kerensk, Penza viloyatida dunyoga kelgan. Moskva universitetining tarix-filologiya fakultetini tugatgan. Turli davrlarda turli lavozimlarga ishlagan. U qadimgi va yangi tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan yondashib, zamonaviy filologiya muammolari va yozuvchilar tilini oʻrganishga harakat qilgan.

M.N. Peterson Tillarni oʻqitishda oʻziga xos metodikadan foydalangan. U boshqalardek tayyor materilalardan emas, balki turli matnlarni oʻqish va tahlil qilish yoʻlini tutgan. Ushbu ishi bilan yangi uslub yaratib, hech qachon bu uslubdan chetga chiqmagan, va bu oʻz samarasini berib, rus tilida yangi stilistika yaratgan.

M.N. Peterson oʻzining 1955-yilda “О часах речи в русском языке” (“Rus tilidagi soʻz turkumlari haqida”) nomli maqolasida soʻz turkumlari haqidagi masala rus tilshunosligida ham xorij til shunosligida ham yetarli darajada oʻrganilmaganini qayd etadi. va olimlarning fikrlari bilan oʻz fikrini dalillash uchun olimlarga murojaat etadi:



1. “Rus ilmiy ana’nasida so’z turkumlari tarkibi va tizimi haqidagi masala turlicha hal qilingan.

2. So’z turkumlarini tasniflash shu darajada qiyinki, hozirgacha hech kim ularning qoniqarli tasnifini yaratgan emas, ana’naga ko’ra Yunon mantiqshunoslari ana’nalariga borib taqaluvchi Fransuz mumtoz grammatikasi ularning sonini 10 ta deb ko’rsatadi, biroq bu tasnif ham hech qanday tanqidga dosh bera olmaydi: “uni hatto birinchi marta ishlab chiqqan tillarga nisbatan ham qo’llash qiyin. Biroq mazkur tasnifni batamom to’g’ri kelmaydigan tillarga nisbatan qo’llash qiyin”.

Shundan keyin maullif yuqoridagi kabi iqtiboslarni istagancha keltirish mumkinligi haqida yozadi va bu masala yana so’zlarni turkumlarga ajratish masalasi alohida olingan tillar morfologiyasida bu masala yanada qoniqarsiz ekanligini qayd etadi, va o’zining maqola maqsadini yoritib beradi. Bu yerda u asosiy e’tiborini “so’z turkumlari” termini deganda nimani tushunish kerakligini aniqlashda harakat etadi. Uning yozishicha, “so’z turkumlari” lotincha “partes orationis” terminining yunoncha “μέρη του λόγος” terminining so’zma so’z tarjimasidir. Yunoncha termining birinchi qismi “μέρος” (“q ism”)ni ikkinchi qismi “λόγος” esa logos shunoslik so’zidan tarkib topgan. Demak so’z turkumlari o’rnida “so’z turkumlari” termini bilan bir qatorda “so’z shunoslik” terminini ham qo’llash mumkin. Aslida so’z turkumlari terminini ishlatish yaxshi, u an’anaga muvofiq va o’quvchini chalg’itmaydi. Yangi terminni qo’llashda o’quvchining uni tushunishi doimo kun tartibida turadi.

M.N. Peterson mazkur termin haqidagi fikrlarini quyidagicha davom ettiradi. Bu termin ijodkorlari – Aleksandrya grammatikashunoslari “logos” deganda “gap”ni tushunadi. Binobarin, Yunon grammatistlari “μέρη του λόγος” deganda so’zlardan tashkil topgan gaplarni tushunganlar. Demak bu termining aniq, muqobil ma’nosi M.N. Petersonga ko’ra “gap qismlari” tarzida tushunish kerak. Mana buning bu haqdagi aslida “so’z turkumlari” – bu “gapning qurilish materiali” desa ham bo’ladi. Biroq boshqa tomondan, bu – bir xil o’zgarishlarni, bir xil shakllarni tavsiflovchi so’zlar guruhlaridir.

Yuqoridagilarga asoslanib so’z turkumlarini quyidagicha ta’riflash mumkin: “so’z turkumlari – bu so’zlarning gap yasaydigan (hosil qiladigan) guruhlari, turkumlaridir” [M.N. Peterson, 1955, 176-bet].

Ushbu maqola muallifining yozishicha, har qanday tilda ham so’z turkumlari miqdori, soni cheklangan. Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichalarini bosib o’tgan so’z



turkumlarining ayrimlari oldin boshqalari esa keyinroq paydo bo'lgan. Ular o'zaro turli morfologik, sintaktik va semantik (mazmuniy) munosabatlarda bo'ladi. Ularning tilidagi asosiy vazifasi tushunchalarni umumlashtirishdir [qarang: M.N. Peterson, 1955, 175bet].

M.N. Peterson haq. Haqiqatan ham bilish jarayoni bevosita abstraktlikka (mavhumlikka) va abstraktlikdan amaliyot tomon bajariladi. Shuning uchun, so'z turkumlari taraqqiyoti tasnifi ham bevosita kuzatishda, matnda qo'llashda o'rganilishi kerak. Bunday kuzatish natijasida olingan umumlashma va abstraksiyalar ya'ni til qo'llanishining barcha sohalarida tekshirish kerak [M.N. Peterson, 1955, 179-bet].

Shuningdek, M.N. Petersonning so'z turkumlari bilan bog'liq material, ma'lumot lug'atlardan olinmasligi kerak. Chunki ular lug'atlarga qayta ishlanib kiritilgan bo'ladi: "uni ya'ni so'z turkumlari haqidagi material matndan olinishi kerak. Chunki til (grammatika tasarrufiga o'tgan lug'at boyligi) muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi" [M.N. Peterson, 1955, 176-bet].

Shundan keyin muallif so'z turkumlarini A. Pushkinning "Belikin hikoyalari" asosida o'rganadi. Chunki unda rus tilining barcha morfologik xususiyatlari istifoda etilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, M.N. Peterson so'z turkumlari taraqqiyoti haqidagi masalani rus tili misolida o'rganishga harakat qiladi, va bunda asosiy e'tiborini "so'z turkumlari" termini deganda nimani tushunish kerakligiga, tahlil usulini (metodini) aniqlashga va tadqiqot olib borish mumkin bo'lgan materialga qaratadi.

Biz ham M.N. Petersonning izidan borib so'z turkumlari haqidagi masalani matn asosida o'rganishga harakat qilidk. Tadqiqot materiali sifatida Afg'onistonda o'zbek tilida ijod qiladigan adib Dr. Sh. Yorqinning "Yana ko'rishguncha" hikoyalar to'plamining "Qutilish" hikoyasi kelgan barcha so'zlarni tadqiqimiz predmeti qilib oldik. ushbu material istifoda etilgan barcha so'zlarni qog'ozcha (kardochka)larga yozib chiqdik. Qog'ozchalarda qayd etilgan so'zlarni grammatik turkumlarga ajratib, nihoyat faktik material asosida so'z turkumlarining tasnifini ishlab chiqdik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hikoyada jami bo'lib 968 ta so'z ishlatilgan bo'lib, ular tasniflanganda so'z turkumlarini quyidagi manazarasini tashkil qildi: ot (293 ta), sifat (56 ta), son (43



ta), ravish (84 ta), fe'l (262 ta), olmosh (109 ta), ko'makchi (41 ta), bog'lovchi (55 ta), yuklama (24 ta), modal (Ø), undov (1ta) va taqlid (Ø).

Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari soni 12 ta deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, bizning tadqiqimiz materiali bo'lgan ushbu hikoyada so'z turkumlari soni o'ntasiga misollar chiqdi. Bundan shunday natija oldikki, so'z turkumlari har matnda turli sonlarda bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilida so'zlar 3 asosiy xususiyatiga ko'ra turkumlanadi:

1. Semantik xususiyatlari – so'zlarning mustaqil holda lug'aviy ma'no anglatishi. Bu jihatdan so'zlar narsa-buyumni ifodalovchi so'zlar, belgi bildiruvchi so'zlar, harakat-holatni ifodalovchi so'zlar kabi guruhlariga bo'linadi. Masalan, gul (narsa-buyum nomi), katta (belgi nomi), o'qimoq (harakat nomi) kabi.

2. Morfologik xususiyatlari – so'zlarning umumiy morfologik xususiyatlari. Masalan: predmet nomini bildiruvchi so'zlar birlik-ko'plik ko'rsata oladi, belgi bildiruvchilar darajalanib kela oladi, fe'llar esa zamonni ifodalay oladi va hokazo.

3. Sintaktik xususiyatlari – so'zlarning gapda qanday gap bo'lagi vazifasida kela olishi. Odatda, predmetni bildiruvchi so'zlar ko'pincha ega. To'ldiruvchi; harakatni bildiruvchi so'zlar ko'pincha kesim vazifasida keladi [2, 2004, 90-bet].

Demak, so'zlar har uchala belgi – semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra turkumlarga ajratiladi.

Hozirgi o'zbek tilida 12 ta so'z turkumi mavjud bo'lib, ular yuqorida bayon qilingan 3 asosiy xususiyatga ega bo'lish darajasiga ko'ra, guruhlariga bo'linadi. O'zbek tilshunosligida so'zlarni turkumlarga ajratishda turli yondashuvlar mavjud, birinchi xil tasnifda so'zlarni quyidagi 5 ta guruhga bo'linadi:

1. Mustaqil so'zlar;
2. Yordamchi so'zlar;
3. Modal so'zlar;
4. Undov so'zlar;
5. Taqlid so'zlar.

Ikkinchi xil tasnifda so'zlar ifodalaydigan umumiy ma'nolarga ko'ra bo'linadi:

1. Nomlovchi so'zlar: ot, sifat, son, fe'l va ravish.
2. Yordamchi so'zlar: bog'lovchi, ko'makchi va yuklama.
3. Ifodalovchi so'zlar: undov, modal va taqlid so'zlar.
4. Ko'rsatuvchi so'zlar: olmosh.



Bizga ma'qul ko'ringan tasnif quyidagi guruhlarga bo'linadigan tanifdir:

- 1) Mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmosh so'z turkumlari.
- 2) Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi va yuklama so'z turkumlari.
- 3) Alohida so'zlar: modal, undov va taqlid so'z turkumlari.

Yuqoridagi ko'pincha tasniflarda mustaqil va yordamchi so'z turkumlari ko'zga ko'rinmoqda. Agarchi, bu tasnif ana'naviy tasnif hisoblansa-da, hozirgi kunda ham o'z qimatini yo'qotmagan. An'anaviy tasnifda so'z turkumlariga 6 ta so'z turkumi kiritilib, ularda ot so'z turkumi birlamchi va fe'l esa ikkilamchi qutbda qaror topmoqda, lekin ayrim tadqiqotlarda taqlid so'zlar ham mustaqil so'z turkumlariga kiritilib, fe'l so'z turkumi oldinga o'tkazilmoqda. Fe'l barcha so'z turkumlari ichida eng katta, grammatik kategoriyalarga boy, mukammal so'z turkumidir. Biroq ma'lumki, Inson dunyoga kelgach, avvalam bor narsa-buyumlarga duch keladi. Har qanday harakat ham predmet yoki shaxs tomonidan bajariladi. Shunga binoan, bizga ma'quli esa an'anaviy tasnifdir.

Mustaqil so'z turkumi leksik va grammatik ma'noga ega bo'lib, gapning biror bo'lagi vazifasida kela olishi bilan shakl yasash xususiyatida ham egadir. Yordamchi so'zlar esa leksik ma'no anglatmaydi, morfologik jihatdan ham o'zgarmaydi, gap bo'lagi vazifasida ham kela olmaydi va yasalish xususiyatiga ham ega emas. Modal, undov va taqlid so'zlar esa mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham o'xshamaydi, o'zaro umumiy jihatlari ham yo'q. Shuning uchun, alohida so'z turkumlari deb ataladi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalar o'rganilish bo'yicha ham har xil fikrlar mavjud. An'anaviy tilshunoslikda har bir so'z turkumining grammatik kategoriyalari o'z doirasida o'rganilib kelingan bo'lsa-da, keyingi paytlarda so'z o'zgartiruvchi vositalar – otlardagi kelishik va fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari so'zlarning sintaktik aloqasiga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllari deb nomlanib, so'z turkumlaridan tashqarida o'rganilmoqda. Bizningcha, har bir kategoriyaning o'z so'z turkumi doirasida berilishi ma'qul. Chunki har so'z turkumining kategoriyasi o'z so'z turkumi doirasida o'rganilmasligi so'z turkumlarining xususiyatlarini bir butun holda tushunmasligiga va so'z turkumlarini tahlil qilishda qiyinchilik hosil qilishga sabab bo'ladi. Shuning uchun, grammatik kategoriyalarga shakl hosil qiluvchilar va so'z o'zgartiruvchilarga bo'lingan holda har kategoriyaning o'z doirasida o'rganilishi ma'qul.



XULOSA

Soʻz turkumlari masalasi, garcha butun dunyoda, jumladan, Oʻzbekistonda ham koʻplab tadqiqotlarda obʻekt qilib olingan boʻlsa-da, hammaga bir xil darajada manzur boʻladigan holatda oʻrganilmagan.

Soʻz turkumlari bilan bogʻliq material, maʼlumot lugʻatlardan olinmasligi kerak. Chunki ular lugʻatlarga qayta ishlanib kiritilgan boʻladi. Bizning ushbu ishimizda matndagi barcha soʻz va ularning turli grammatik qoidalari qulaylicha tahlil qilinishi mumkin.

REFERENCES

1. “Вопросы грамматического строя”, Издательство академий Наук СССР Москва, 1955.
2. Муҳитдинов Х., Худойбергана Д., Умиров И. ва бошқа. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (ўқув қўлланма), Т., Илм-зиё, 2004.
3. Ishonch Zikrulloh, Hozirgi oʻzbek tili, Kobul, Nigorxona matbaasi, 2014.
4. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Т., fan va texnologiya, 2010.
5. Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.
6. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Т., 2009.
7. Шоабдурахмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Фан, 1980.